



IKKINCHI JAHON URUSHI XOTIRALARDA

Aminova Muxlisa G'anibek qizi

Talaba, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7932230>

ARTICLE INFO

Received: 03rd May 2023

Accepted: 11th May 2023

Online: 12th May 2023

KEY WORDS

Ikkinchi jahon urushi, 9- may Xotira va qadrlash kuni, diyor va vatan tushunchasi, front va front orti jasoratlar.

ABSTRACT

Ushbu maqola XX asrda sodir bo'lgan jahon tarixidagi eng yirik urush – ikkinchi jahon urushi voqealari, oqibatlarini hamda g'alabadan keyingi islohotlar haqida . Inson aziz – xotira muqaddas shiori ostida amalga oshirilgan ishlar, urush qurbonlarini yod etish hamda front ortida fidokorona mehnat qilib, bugun oramizda sog'- salomat bo'lib yurgan muhtaram faxriylarimizning bayram munosabati bilan prezidentimiz tomonidan rag'batlantirish ishlari amalga oshirilganligi to'g'risida so'z yuritdik.

XX asr fojiasi sifatida insoniyat tarixiga kirgan, 1939-yil 1-sentabr kuni boshlanib , 1945-yil 2-sentabrda o'z yakuniga yetgan Ikkinchi jahon urushi butun dunyoni o'z domiga tortmasdan qo'ymaydi. Bo'lingan dunyoni qayta bo'lish maqsadida boshlangan bu urush 3 davrni o'z ichiga oladi: - SSSR Germaniyaga qarshi urushning 1-davri (1941-yil iyun- 1941-yil noyabr)da , asosan, mudofaa harakteridagi janglar olib boriladi .- Sovet qo'shinlari urushining 2- davri (1942-yil noyabr – 1943-yil oxiri)da Stalingrad va Kursk janglarining g'alabalari natijasida Germaniya qo'shinlari qo'mondonligi strategik tashabbusni butunlay qo'ldan chiqaradi. – Fashizmga qarshi urushning 3-davri (1944-yil yanvar- 1945-yil may) boshlarida sovet qo'shinlari SSSR hududining deyarli hammasini ozod qildi.[5.]

Va urush natijasida SSSR bo'yicha urush davrida fashistlar qo'lida 6,2 million kishi asirlikda bo'lgan. Ulardan urush oxiriga kelib 4 million kishi halok bo'lgan. O'zbekistonlik jangchilarning umumiy tarkibidan esa 263000 dan ziyod kishi halok bo'ldi, 132670 kishi bedarak yo'qoldi, 60452 vatandoshimiz urushdan nogiron bo'lib qaytdi. Shuningdek, o'n minglab o'zbekistonlik jangchilar asirlikda bo'ldi.

O'zbek xalqining ikkinchi jahon urushida ko'rsatgan yuksak jasoratini 1941-1945 yillarda bashariyat boshiga mislsiz kulfatlar yog'dirgan urush frontlarida O'zbekistonlik jangchilar ham tarifga sig'mas qahramonligini namoyon etgan. Oziq –ovqat , kiyim- bosh , qurol- aslaxalar bilan ta'minlash borasida katta natija ko'rsatgan. Rossiya hududidan turli millatga mansub 200 ga yaqin yozuvchi va shoirlar Toshkentga ko'chib kelib, shu yerda ijod qildilar. Ko'pgina o'zbek oilalari ikkita va undan ortiq yetim bolalarni o'z tarbiyalariga oldilar. Jumladan Sh. Shomahmudovlar oilasi 14 ta, Samadovlar oilasi 12 ta, M. Jo'rayeva va



Ashurxo'jayevlar oilasi 8 tadan bolalarni o'z tarbiyalariga oldilar . 1943-yil oxiriga kelib shaharlarda 4672 bola, qishloqlarda esa 870 bola o'zbek oilalari tomonidan tarbiyaga olinib, ularga haqiqiy insonparvarlik va mehr-muhabbat namunasi ko'rsatilgan.

Urush faxriylari, ishtirokchilari, urushda qurbon bo'lganlarning xotirasini abadiylashtirish hamda biz bilan sog'-salomat yashayotgan front orti ishtirokchilarining mehnatlarini rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti muhtaram Islom Abdug'aniyevich Karimov bobomizning " Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 18-martdagi 119-sonli "umumxalq bayrami 9-may – Xotira va Qadrlash kunini o'tkazishni tashkil etish to'g'risida" gi qarori qabul qilindi. Shu qarorga asoslanib har yili 9-may kuni keng miqiyosda nishonlanib kelinmoqda. Bobomiz 1999-yil 9-may kuni so'zlagan nutqida : " Biz nima uchun 9-may bayramini Xotira va qadrlash kuni deb e'lon qildik? Xotira deganda biz bu foniy dunyoda o'tgan ajdodlarimizni eslash, ularning chirog'ini yoqib, ezgu ishlarini davom ettirishni tushunamiz. Bu xalqimizga xos azaliy fazilatdir. Xotirasi bo'lmagan, tarixni unutgan, o'z ajdodlarining qadriga yetmaydigan millatning istiqboli yo'q. Bu haqiqatni kishilik tarixi isbotlab turibdi. Qadrlash degani bu- asrlar davomida ona diyorimizni, xalqimizning ozodlik va istiqlolini, erkin va farovon hayotini mardlik va shijoat bilan himoya qilgan fidoiy vatandoshlarimizni yodga olmoq, ularga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatmoqdir", degan o'zining samimiy fikrlarini ifodalagan. Bu esa yurtimiz fidoyilarini yanada qadrlashimizga da'vatdir. Insonning qadri, hurmati har doim e'zozga loyiq. Keksalarni ardoqlash, o'tganlarni xotirlash, aziz ota-onaxonlarni duosini olmoqlikning saodati o'zgacha. Har bir inson o'z tarixini bilishi, o'tmishini chuqur o'rganishi kerak. Inson o'zligini kechagi kunidan qidirmog'i, bugunidan topmog'i, ertangi kuniga jasorat bilan qadam tashlamog'i lozim. " O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q " deb bejiz aytmagan birinchi prezidentimiz.[1.]

"Xotira- idrok etilgan narsa va hodisalarni yoki o'tmish tajribalarni esda qoldirish va zarur bo'lganda tiklashdan iborat psixik jarayon. Xotira eng yaxshi damlarni esda qoldiradi." [3.] Amerikalik kibernetik, neyrofiziolog, psixiatr – Grey Uolter o'zining " Tirik miya " kitobida xotiraga shunday tushuncha beradi: " Xotira doimiy yonib turadigan shamdir" . Bizni yorug' kunlarga eltgan , Vatanimiz tinchligi uchun jonini fido qilgan faxriylarimiz, ota-bobolarimiz yoqib bergan shamni o'chirmasdan, keyingi avlodga yetkazish bizning burchimizdir. Tariximizning og'ir sinovlaridan yorug' yuz bilan o'tib , bizni kelajagimizni yoritgan insonlarni biz, xalqimiz, hech qachon unutmaymiz. Sizlarga hamisha ta'zimda bo'lamiz.Shu o'rinda Prezidentimiz I.Karimovning: " Jafokash xalqimiz asrlar davomida ne ne og'ir sinovlar, mashaqqatli kunlarni ko'rmadi. O'z ozodligi, erkinligi, tinch hayoti yo'lida kurashib, behisob qurbonliklar bergan ota-bobolarimiz jasorati tarixiy xotiramizdan hech qachon o'chmaydi", degan so'zlarini eslash o'rinlidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 16-martdagi farmoni asosida, sobiq ittifoq davlatlari orasida birinchi bo'lib, 1941-1945 yillardagi II jahon urushida halok bo'lgan va bedarak yo'qolgan o'zbekistonlik jangchilar xotirasini abadiylashtirish maqsadida nashr etilgan "Xotira kitobi" ham buning yaqqol namunasidir. Bu kitob O'zbekistonning barcha viloyat va tumanlari bo'yicha alifbo tartibida urushda halok bo'lgan va bedarak yo'qolgan kishilar ro'yxatini o'z ichiga olgan 35 jilddan iborat majmuadir. Xotira ham,qadrlash ham inson uchun eng buyuk bo'lgan ne'matdir.



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 9-may – Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan qabul marosimida ham o'zining nutqida faxriylarimizning jasoratiga tan berib, g'alaba bilan chin dildan samimiy tabrikladilar. O'zining chuqur hurmat- ehtiromini va ezgu tilaklarini izhor etdilar. Prezidentimiz tashabbuslari bilan nuroniylarimizga e'tibor va g'amxo'rlik yanada kuchaydi. Ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ,jumladan , pensiyalarini oshirish, tibbiy xizmat va ijtimoiy-maishiy ta'minotini yaxshilash, yolg'iz qariya va nogironlarga davlat ko'magini kuchaytirish bundan keyin ham doimiy e'tiborda bo'lishlari haqida aytib o'tdilar va bu masalalar qanday lavozimda bo'lmasin yurtimizdagi har bir inson uchun birinchi o'rinda turishi, ularning nafaqat vazifasi, balki insoniy burchiga aylanishi kerakligi haqida so'z yuritildi. " Aziz do'stlar, mo'tabar otalarimiz, mehribon onalarimiz boshimizdagi toji davlatimiz ekanini hech qachon unutmaylik. Bu g'animat, ko'z ochib yumguncha o'tib ketadigan hayotda ularni qancha qadrlab, imkon qadar umrlarini uzaytirishga qancha harakat qilsak, ikki dunyoda aslo kam bo'lmaymiz"- degan fikrlari buning dalilidir. Prezidentimizning yana bir gaplari meni o'z domiga tortdi: "Agarki mendan, dunyodagi qaysi oila eng baxtli, deb so'rashsa, men hech ikkilanmasdan, keksalari bosh bo'lib, izzat-hurmatda hayot kechirayotgan oila, deb javob bergan bo'lardim". Biz o'zbek xalqiga doimo tinchlik va omonlik kerak degan da'vat berib, hammamizni doimo hushyor va oghoh bo'lib yashashga chaqirdilar. Hatto tinchligimizni, faxriy insonlarimizni madh etib she'r yozmagan, asar bitmagan shoirlarimiz bo'lmasa kerak. Shunday shoirlarimizdan birisi, Javoharlar Neru davlat mukofoti sohibasi Zulfiya Isroilovanning ijodidan ham o'rin olgan desak mubolag'a bo'lmaydi:

Urush, noming o'chsin jahonda,
Xamon bitmas sen solgan alam
Sen tufayli ko'p xonadonda
Ota nomli buyuk shodlik kam. [8.]

Shunday ekan, har birimiz ota- boblarimizni qadrlaylik, ulug'laylik. O'tganlar ruhini shod etib,tiriklarni asrab,shunday kunga yetkazganlari uchun shukronalar aytaylik. Aziz yurtdoshlar! Yurtimiz faxriylari! Sizlarni g'alabamizning 78 yilligi bilan chin dildan qutlayman. Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo'lsin!

References:

1. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asari Islom Karimov.[ikkinchi nashr] Toshkent."Ma'naviyat" .2010.
2. O'zbek xalq maqollari "sharq nashriyot -matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriryati, 2005
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 2000-2005
4. O'zbekiston Respublikasi"Xotira kitobi" .O'zbekiston maxsus jild :Toshkent.1995
5. O'zbekistonning yangi tarixi , 2-kitob [O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida].Toshkent ..2000
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil ,3-son, 68-modda.
7. Fashizm ustidan qozonilgan g'alabada Oz'bekistonning tarixiy hissasi. 1941-1945.[ilmiy nazariy konferensiya materiallari], Toshkent.,2000.
8. Zulfiya Isroilova "Saylanma" Toshkent "Akademnashr" 2015